

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



Ro'yxatga olinadi № 05/01/005
2024 yil 29.08.2024

IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI

FANINING O'QUV DASTURI

| | | |
|-----------------------|------------|---|
| Bilim sohasi: | 400000 - | Biznes, boshqaruv va huquq |
| Ta'lim sohasi: | 410000 - | Biznes va boshqaruv |
| Ta'lim yo'nalishlari: | 60410100 - | Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) |
| | 60410200 - | Buxgalteriya hisobi |
| | 60410500 - | Moliya va moliyaviy texnologiyalar |
| | 60410600 - | Bank ishi |
| | 60410700 - | Statistika |

Qarshi - 2024 yil

| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar |
|------------------------------|---|------------------------|-------------------------|
| ITT1105 | 2024-2025 | I | 4/4 |
| Fan/modul turi | Ta'lim tili | | Haftadagi dars soatlari |
| Majburiy | O'zbek | | 4/4 |
| Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| 1. | 60 | 60 | 120 |
| IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI | | | |
| 2. | <p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga Antik davrdan XX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan iqtisodiy fikrning rivojlanishi haqida umumiy ma'lumot berish. Iqtisodchilar har doim duch kelgan va hal qilishga uringan muammolar mohiyatiga alohida e'tibor berishlari kerak. Muammolarni hal qilishda iqtisodchilarning faoliyatidagi uzluksizlik va o'zgarishlarni tushunish iqtisodiyotni fan sifatida shakllanish evolyusiyasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Fanni muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng talabalar iqtisodiy ta'limotlar tarixidagi asosiy maktablar va tendensiyalarni ajrata olishlari va XIX-XX asrlar iqtisodiy yondashuvlarning analitik asoslarini tushunishlari kerak.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarga iqtisodiy fikrning tarixiy evolyusiyasi to'g'risida tushuncha berish. Talabalarni qisman iqtisodiy tarixning ba'zi epizodlari bilan tanishtirish. Ularga ikki ming yildan ortiq davrda iqtisodiy tafakkur evolyusiyasi to'g'risida keng tushunchalar berish. Talabalarda iqtisodiy tafakkurning turli oqimlarini va ularning iqtisodiy ta'limotlar tarixiga ta'sir ko'rsatgan ba'zi shaxslar bilan tanishtirish.</p> <p>Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - iqtisodiy atamalar, konsepsiya va nazariyalarni bilish va tushunishni o'rgatish; - iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalana olishni o'rgatish; - iqtisodiy tahlil qila olishni o'rgatish; - iqtisodiy g'oyalarni yozma ravishda mantiqiy va aniq | | |

tasvirlashni o'rgatish;

- iqtisodiy tadqiqot olib borishda iqtisodiy konsepsiyalarni qo'llay olishni o'rgatish.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

“Iqtisodiy ta'limotlar tarixi” fanning predmeti va va uslubi

“Iqtisodiy ta'limotlar tarixi” fanning predmeti. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani metodikasi. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani rivojlanishining asosiy bosqichlari.

Qadimgi Sharq davlatlari iqtisodiy ta'limotlari

Qadimgi Sharq davlatlari iqtisodiy taraqqiyotining xususiyatlari. Qadimgi Bobil iqtisodiy g'oyalari. Qadimgi Xitoyning iqtisodiy tafakkuri: a) konfutsiychilar va legistlarning ta'limoti; b) Guan-tsi traktatlari. Qadimgi Hindiston iqtisodiy ta'limoti: “Artxashastra” ta'limoti.

Antik dunyo iqtisodiy qarashlari

Qadimgi Gretsiya ilk quldorlik jamiyatining iqtisodiy qarashlari. Platon. Aristotel iqtisodiy falsafasi: boylik, adolat va insoniyatning gullab-yashnashi. Ksenofontning iqtisodiy g'oyalari: ko'hna donolikdan zamonaviy farovonlikka qadar. Qadimgi Rimning iqtisodiy konsepsiyalari. Seneka, Pliniy Katta. Katon, Varron, Kolumellaning agronomik asarlarida Rim latifundiyalari muammolari.

O'rta asr iqtisodiy qarashlari

O'rta asr iqtisodiy falsafasi: tarixiy tafakkur evolyusiyasi. Yusuf Xos Hojib iqtisodiy g'oyalari. Beruniyning iqtisodiy qarashlari. Rabg'uziy iqtisodiy qarashlari. Ibn Xaldun iqtisodiy ta'limoti. Axloqiy iqtisod: Avliyo Foma Akvinskiyning adolatlilik bo'ylik va umumiy farovonlik haqidagi qarashlari

Merkantilizm iqtisodiy ta'limoti

Merkantilizm g'oyasi vujudga kelishining iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlari. Ilk merkantilizm monetar tizimi. Tomas Man iqtisodiy ta'limoti. Tomas Manning “Angliya boyligi tashqi savdoda yoki bizning tashqi savdo balansimiz bizning boyligimizni tartiblovchisi sifatida” asaridagi arim iqtisodiy qarashlar

Klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi

* Klassik iqtisodiy maktab paydo bo'lishining tarixiy tavsifi. Angliyadagi shart-sharoit. Boylikning asosi - ishlab chiqarish sohasi, mehnat va yer, tabiat. Uilyam Petti va uning asarlari. Uning merkantilizmga munosabati. Fransiya klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi. P.Buagilberning iqtisodiy qarashlari. Fiziokratizm iqtisodiy ta'limoti vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va uning mohiyati. F.Kene - fiziokratizm ta'limotining asoschisi. Uning «Iqtisodiy jadval» asaridagi g'oyalari. A.Tyurgo va uning iqtisodiy ta'limoti

Klassik iqtisodiy maktabning rivojlanishi

Klassik maktab g'oyalari shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari. Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi. A. Smitning iqtisodiy g'oyalari. Uning "Xalqlar boyligi..." asaridagi iqtisodiy qarashlar. A.Smit tadqiqot predmeti va metodologiyasi: boyluk nazariyasi, mehnat taqsimoti konsepsiyasi, pul nazariyasi, qiymat va baho nazariyasi, omilli daromad nazariyasi, kapital nazariyasi, mehnat unumdorligi nazariyasi, davlatning iqtisodiyotga aralashuviga munosabat. David Rikardo - sanoatning fabrika davri mafkurachisi. qiymat nazariyasi, ish haqi va foyda nazariyasi, renta nazariyasi.

Klassik iqtisodiy maktabning yakunlanishi

Muqobil iqtisodiy g'oyalar paydo bulishining tarixiy shart-sharoitlari va xarakteristikasi. Tomas Robert Maltus va uning "Nufus nazariyasi". Neomaltusianizm. "Nufus nazariyasi" tanqidi. Jon Styuart Mill va uning iqtisodiyotga yondashuvi. Millning asarlari. Jeremy Bentamning Mill ta'limotiga ta'siri. Millning iqtisodiy nazariyalari. Jan Batist Sey. "Sey qonuni" (Say's Law). "Sey qonuni" tanqidi.

Marjinalizm iqtisodiy ta'limoti

Marjinalizm. Iqtisodiy ta'limotlarda neoklassik yo'nalishning shakllanishi. Neoklassik iqtisodiyotning asosiy nazariyalari. Karl Menger - marjinal inqilob asoschisi. Menger va Jevons evolyutsiyasi. Avstriyaning ikkinchi avlodi. Jevons, Valras, Byom Baverk nazariya va ta'limotlari. Jevons, Menger va Valrasning keying yozuvchilarga ta'siri. Meyoriy unumdorlik nazariyasining ahloqiy tomonlari. Meyoriy unumdorlik - bandlik nazariyasi

sifatida. Meyoriy unumdorlik nazariyasining tanqidi. Foyda va foiz. Kapital va foiz nazariyasi. Foiz muammosi. Bem Baverkning foiz nazariyasi.

Keyns va keynschilik ta'limoti

Jon Meynard Keyns va uning ta'limoti. Davlat aralashuvi Ishsizlikning sabab va oqibatlari. Davlatning xarajatlari va investitsiyalari Yalpi talab va yalpi taklif modeli. Multiplikator effekti. "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" asari va undagi bosh g'oya. Davlat aralashuvining asosiy tamoyillari. Post-keynschilik. Nomukammal bozorlar.

Monetarizm

Monetarizm nazariyasining mohiyati. Monetarizmning asosiy tamoyillari. Inflyatsiyani nazorat qilish usullari. Davlat byudjeti va fiskal siyosatga yondashuv. AQShda monetarizmning qo'llanilishi. Buyuk Britaniyada monetarizmning qo'llanilishi. Milton Fridmen va uning monetar nazariyasi. Pol Samuelson. Stolper-Samuelson teoremasi.

Institutsionalizm

Institutsionalizmning asosiy xususiyatlari, evolyutsiyasi. Institutlarning o'zgarish jarayonlari. Institutsionalizmning asosiy tamoyillari. Yangi institutsionalizm (1970-yillar). T.Veblen g'oyalari. «Bekorchi sinflar nazariyasi» asaridagi iqtisodiy g'oyalar. Ko'rgazmali iste'mol. Bekorchi sinflar. Zarurati va zaruratsiz iste'mol. J.R.Kommons iqtisodiy qarashlari. Institutsional iqtisodiyot va Kommons nazariyalari. Kommonsning asar va ilmiy ishlari. U.K.Mitchell g'oyalari. Iqtisodiyotda bashorat (prognoz) masalalari siklik davriy o'zgarishlar nazariyalarining paydo bo'lishi. J.K.Gelbreytning iqtisodiy qarashlari. Texnostruktura. Iste'mol jamiyati. Jon Kennet Gelbreytning asarlari.

Xalqaro savdo nazariyalari

Mutloq ustunlik prinsipi. Qiyosiy ustunlik nazariyasi. Eli Xeksher va Bertil Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi. Mehnat va kapital. Nisbiy ustunlik nazariyasi. Raqobat ustunligi nazariyasi. Zamonaviy xalqaro valyuta munosabatlari

Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureatlarining g'oyalari
Nobel mukofoti, iqtisodiyot bo'yicha mukofotning ta'sis etilish

xususiyatlari. Nobel mukofoti sovrindorlari iqtisodiy g'oyalari. Nobel mukofoti laureatlari ilmiy ishlarining ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tish konsepsiyasi va strategiyasi

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotining mohiyati, oqibatlari. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishning obyektiv zaruriyati. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlariga o'tishning xususiyatlari. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish tamoyillarining ishlab chiqilishi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasining ahamiyati va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishi sifatida.

III. Amaliy (seminar) mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanining predmeti va uslubi
 2. Qadimgi sharq davlatlari iqtisodiy ta'limotlari
 3. Antik dunyo iqtisodiy qarashlari
 4. O'rta asr iqtisodiy qarashlari
 5. Merkantilizm ta'limoti
 6. Klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi
 7. Klassik iqtisodiy maktabning rivojlanishi
 8. Klassik iqtisodiy maktabning yakunlanishi
 9. Marjinalizm
 10. Keynes va keynschilik ta'limoti
 11. Monetarizm
 12. InstitutSIONALIZM
 13. Xalqaro savdo nazariyalari
 14. Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureatlarining g'oyalari
- Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jehozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Fanga kirish
2. Qadimiy dinlarning iqtisodiy jihatlari.
3. Yunonlar, Aflotun, Aristotel.
4. O'rta Osiyo mutaffakirlari iqtisodiy g'oyalar.
5. O'rta asr iqtisodiy tafakkuri.

6. Transformasiyalashuv davri.

7. Merkantilizm.

8. Makroiqtisodiyotning tug'ilishi: Petti, Kantillon, Xyum, Tyurgot, Kene qarashlari.

9. Adam Smit.

10. Klassik iqtisodchilar, Rikardo, Maltus, Xyum.

11. Utopiklar, Marks va Radikallar.

12. Germaniya tarixiy ta'limotlari.

13. Keynes, Shumpeter, Xayek va Veblenning ta'limotlari tarixi.

14. Oqim bo'lmagan iqtisodiy fikr

15. Sosialistik iqtisodiyot to'g'risidagi fikrlar, Markaziy Yevropa ta'limoti

16. Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureatlarining g'oyalari

17. O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tish konsepsiyasi

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- iqtisodiy ta'limotlar tarixi tushunchasi va asoslari, iqtisodiy ta'limotlar manbalari, tamoyillarni va omillari, iqtisodiy g'oyalar va ijtimoiy konsepsiyalari haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;
- talaba iqtisodiy ta'limotlarni oddiydan murakkabga tomon rivojlanish jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;

• iqtisodiy taraqqiyotga olib kelgan g'oyalar va iqtisodiy siyosatning mazmunini; iqtisodiy rivojlanishning yuksalish va sustlashuv sabablarini bilish *malakasiga ega bo'lishi kerak*.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
- jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;

| | |
|----|--|
| | <ul style="list-style-type: none"> • turli darajadagi testlarni yechish; • so'rov o'tkazish. |
| 5. | <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oralq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirish.</p> |
| 6. | <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Hunt E.K. and Mark Lautzenheiser. History of Economic thought. Copyright by M.E. Sharpe, Inc. 2011 2. A.A.Razzaqov, Sh.H.Tashmatov, N.T.O'rmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. – T.: Iqtisod-Moliya, 2007. – 320 b. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. A.A.Islamov, E.E.Egamov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. – T.: O'zbekiston, 2003. – 216 b. 2. Q.Yo'ldoshev, Q.Muftaydinov, V.Abdurahmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. – 188 b. 3. Н.Е.Титова. История экономических учений: Курс лекций. – М.: Гуманит.изд.центр ВЛАДОС, 1997. – 288 с. <p>Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. 2. www.lex.uz – O'zR Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 3. www.tradingeconomics.com – iqtisodiy ko'rsatkichlar |
| 7. | <p>Fan dasturi QarMII Iqtisodiyot fakulteti Kengashining 2024 yil _____ dagi _____-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2024 yil _____ dagi _____-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan fan dasturlarini o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.</p> |
| 8. | <p>Fan/modul uchun mas'ullar: M.X.Dustova – QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasida katta o'qituvchisi</p> |
| 9. | <p>Taqrizchilar: G.P.Erkayeva – QarDU, “Masofaviy ta'lim” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (turdosh OTM dan) G.T.Samiyeva – QarMII, “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD).</p> |